

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybulla o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODELI	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	



EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ DAVLATLARI TARJIBASI

Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti.

E-mail: mashhura.r@urdu.uz

ORCID: 0009-0005-4387-2049



Annotatsiya. Mazkur maqolada eksport-logistika infratuzilmasi samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, transport infratuzilmasi sifati, bojxona va chegara tartib-taomillari, logistika xizmatlari, raqamlashtirish hamda multimodal transport tizimlarining o'rni tahlil qilingan. Logistika samaradorligini baholovchi xalqaro ko'rsatkichlar – Logistika samaradorligi indeksi (LPI), Muntazam dengiz qatnovi bo'yicha o'zaro bog'liqlik indeksi (LSCI) hamda Savdoni yengillashtirish ko'rsatkichlari (TFI) asosida eksport-logistika infratuzilmasining samaradorligi baholangan. Shuningdek, Singapur, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya va Xitoyning ilg'or tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport-logistika infratuzilmasi, logistika samaradorligi, Logistika samaradorligi indeksi (LPI), Muntazam dengiz qatnovi bo'yicha o'zaro bog'liqlik indeksi (LSCI), Savdoni yengillashtirish ko'rsatkichlari (TFI), multimodal transport, raqamli logistika, Smart Port, logistika siyosati.

Аннотация. В данной статье исследованы основные факторы, влияющие на эффективность экспортно-логистической инфраструктуры, включая качество транспортной инфраструктуры, таможенные и пограничные процедуры, логистические услуги, цифровизацию и развитие мультимодальных транспортных систем. Эффективность экспортно-логистической инфраструктуры оценена на основе международных показателей: Индекса эффективности логистики (LPI), Индекса связанности линейного морского судоходства (LSCI) и Индекса содействия торговле (TFI). Кроме того, проведён сравнительный анализ передового опыта Сингапура, Германии, Нидерландов, Республики Корея и Китая, а также разработаны научно-практические выводы и рекомендации по его применению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: экспортно-логистическая инфраструктура, эффективность логистики, Индекс эффективности логистики (LPI), Индекс связанности линейного морского судоходства (LSCI), Индекс содействия торговле (TFI), мультимодальный транспорт, цифровая логистика, Smart Port, логистическая политика.

Abstract. This article examines the main factors affecting the efficiency of export logistics infrastructure, including the quality of transport infrastructure, customs and border procedures, logistics services, digitalization, and the development of multimodal transport systems. The efficiency of export logistics infrastructure is assessed using internationally recognized indicators, namely the Logistics Performance Index (LPI), the Liner Shipping Connectivity Index (LSCI), and the Trade Facilitation Indicators (TFI). In addition, a comparative analysis of the best practices of Singapore, Germany, the Netherlands, South Korea, and China is conducted, and scientific and practical conclusions and recommendations for their application in Uzbekistan are proposed.

Keywords: export logistics infrastructure, logistics efficiency, Logistics Performance Index (LPI), Liner Shipping Connectivity Index (LSCI), Trade Facilitation Indicators (TFI), multimodal transport, digital logistics, Smart Port, logistics policy.

KIRISH

Xalqaro ishlab chiqarish va qiymat zanjirlarining kengayishi hamda tashqi savdo hajmlarining ortib borishi eksport-logistika infratuzilmasini mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining strategik omillaridan biriga aylantirdi. Raqamlashtirish chuqurlashgan sharoitda mamlakatlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ishlab chiqarish salohiyati bilan emas, balki mahsulotlarni tashqi bozorlarga tezroq, xavfsiz, belgilangan vaqtda va minimal xarajatlar bilan yetkazib berish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Shu sababli eksport-logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasi eksport hajmi, tashqi savdo samaradorligi, investitsion jozibadorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Eksport-logistika infratuzilmasi eksport faoliyatini uzluksiz tashkil etishga xizmat qiluvchi transport

tarmoqlari (avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transporti), portlar, aeroportlar, logistika markazlari, ombor xo'jaliklari, bo'xona terminallari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimodal transport tizimlari hamda eksportni qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlar majmuasini qamrab oladi. Mazkur infratuzilma mahsulotlarning ishlab chiqaruvchidan xorijiy iste'molchigacha bo'lgan harakatini uzluksiz tashkil etish, logistika xarajatlarini optimallashtirish, transport operatsiyalarining ishonchlilikini ta'minlash hamda yetkazib berish muddatlarini qisqartirish orqali tashqi savdo samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda logistika tizimlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt, IoT (buyumlar interneti), blokcheyn va "Yagona darcha" kabi texnologiyalarning keng joriy etilishi eksport-logistika infratuzilmasining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga imkon yaratmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi eksport-logistika infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati va samaradorligini tavsiflovchi nazariy yondashuvlarni umumlashtirish, logistika infratuzilmasi samaradorligini oshirish bo'yicha Singapur, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarning ilg'or tajribalarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning O'zbekiston eksport-logistika tizimini rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport-logistika infratuzilmasining iqtisodiy o'sish va tashqi savdo rivojlanishidagi o'rni xalqaro tashkilotlar, xorijiy olimlar hamda milliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda logistika infratuzilmasining sifati, transport tizimining rivojlanganligi, bo'xona va chegara boshqaruvi samaradorligi, raqamlashtirish darajasi hamda logistika xizmatlarining sifati mamlakat eksport salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlari orasida Jahon bankining **Logistics Performance Index (LPI)** — Logistika samaradorligi indeksi logistika samaradorligini baholashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. LPI logistika samaradorligini bo'xona rasmiylashtiruv, savdo va transport infratuzilmasi sifati, xalqaro yuk tashishni tashkil etish qulayligi, logistika xizmatlari sifati, yuklarni kuzatish imkoniyati hamda yuklarni o'z vaqtida yetkazib berish kabi oltita ko'rsatkich asosida baholaydi. 2025-yilda taqdim etilgan yangilangan LPI 2.0 metodologiyasi ekspert so'rovlari asosidagi yondashuvdan voz kechib, real yuk jo'natmalari ma'lumotlariga asoslangan tizimga o'tgan [1].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan ishlab chiqilgan savdoni yengillashtirish ko'rsatkichlari savdo jarayonlarini soddalashtirish, bo'xona tartib-taomillarini raqamlashtirish va institutsional islohotlarning tashqi savdo xarajatlarini kamaytirishdagi rolini asoslaydi. IHTT tadqiqotlariga ko'ra, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanishi bilan bir qatorda samarali bo'xona boshqaruvi va "Yagona darcha" tizimining joriy etilishi eksport operatsiyalarining tezlashishiga hamda logistika xarajatlarining kamayishiga xizmat qiladi [2].

BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning **"Dengiz transporti sharhi"** hisobotlarida dengiz transporti, port infratuzilmasi hamda Muntazam dengiz qatnovi bo'yicha o'zaro bog'liqlik indeksi (Liner Shipping Connectivity Index — LSCI) xalqaro savdoni rivojlantirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi. Hisobotlarda portlar va multimodal logistika markazlarini modernizatsiya qilish eksport hajmini oshirish, transport-logistika xarajatlarini kamaytirish hamda mamlakatlarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [3].

Portugal-Perez va Wilson transport infratuzilmasi hamda savdoni yengillashtirish bo'yicha islohotlarning eksport ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilib, "qattiq" (yo'llar, portlar, temir yo'llar) va "yumshoq" (bo'xona, institutsional boshqaruv) infratuzilmaning eksport samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini asoslagan bo'lib, logistika infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar eksport hajmini sezilarli oshirishini ta'kidlaganlar [4].

Martí, Puertas va García logistika samaradorligi va eksport o'rtasidagi bog'liqlikni ssenariy tahlili asosida baholab, logistika infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlar tashqi bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikka ega ekanligini ko'rsatganlar [5].

Bensassi va hammualliflar transport infratuzilmasi sifati mamlakatlarning nisbiy ustunligini shakllantirishda muhim omil ekanligini asoslab, avtomobil va temir yo'l tarmoqlari, portlar hamda logistika markazlarini rivojlantirish eksport diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar [6].

Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi bo'yicha nazariy asoslar Christopher, Bowersox, Coyle va boshqalar tadqiqotlarida logistika infratuzilmasini transport, ombor xo'jaligi, axborot tizimlari, logistika markazlari va institutsional boshqaruvning o'zaro bog'langan majmuasi sifatida talqin qilinib, uning samaradorligi transport xarajatlari, yetkazib berish muddati, xizmat sifati va ta'minot zanjiri ishonchliliigi orqali namoyon bo'lishi qayd etilgan [7], [8], [9].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada eksport-logistika infratuzilmasi samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini baholash maqsadida iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Jahon banki (World Bank), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon savdo tashkiloti (JST), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda boshqa rasmiy statistik manbalar **ma'lumotlari** tashkil etdi.

Maqolada **qiyosiy tahlil metodidan** eksport-logistika infratuzilmasi rivojlangan xorijiy davlatlarni o'zaro taqqoslashda foydalanildi. Ushbu metod orqali logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasi, transport tarmoqlari sifati, port va logistika markazlari faoliyati, bojxona boshqaruvi, raqamli logistika texnologiyalarining joriy etilishi hamda eksport ko'rsatkichlari qiyosiy baholandi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlari asoslandi.

Tahliliy yondashuv yordamida eksport-logistika infratuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning eksport samaradorligiga ta'siri tizimli ravishda o'rganildi. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar umumlashtirilib, logistika infratuzilmasining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar, jumladan, transport infratuzilmasi sifati, logistika xizmatlari darajasi, bojxona rasmiylashtiruv, raqamlashtirish, multimodal tashuvlar va logistika markazlarining o'rni tahlil qilindi.

Statistik tahlil metodlari yordamida eksport-logistika infratuzilmasi samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar — Logistika samaradorligi indeksi (LPI), tashqi savdo hajmi, eksport o'sish sur'atlari, logistika xarajatlari, transport infratuzilmasi sifati hamda boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash va dinamik tahlil usullari orqali logistika infratuzilmasi samaradorligi bilan eksport natijalari o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport-logistika infratuzilmasining samaradorligi mavjud infratuzilmadan foydalanish natijasida eksport operatsiyalarini minimal vaqt va xarajatlar bilan, yuqori xizmat sifati hamda ishonchlilik asosida amalga oshirish darajasini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu samaradorlik odatda transport va savdo infratuzilmasining sifati, bojxona rasmiylashtiruv samaradorligi, logistika xizmatlari sifati, xalqaro yuk tashishni tashkil etish qulayligi, yuklarni kuzatish va monitoring qilish imkoniyatlari hamda yetkazib berishning o'z vaqtida amalga oshirilishi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Jahon bankining hisobotlariga ko'ra, logistika tizimi samaradorligining ortishi rivojlanayotgan mamlakatlarning global ta'minot zanjirlariga tezroq integratsiyalashishiga, eksport xarajatlarini kamaytirishga va xalqaro savdoda yuqori raqobat ustunligiga erishishga olib keladi.

O'zbekiston dengiz portlariga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun transport koridorlarini diversifikatsiya qilish, multimodal logistika markazlarini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va raqamli logistika texnologiyalarini keng joriy etish eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Eksport-logistika infratuzilmasi samaradorligini oshirishning institutsional, tashkiliy va texnologik mexanizmlarini xorijiy davlatlar tajribasi bilan o'zaro taqqoslash hamda ularning amaliy natijalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarur.

LPI logistika tizimining samaradorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan xalqaro ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Dastlab 2007-yilda Jahon banki tomonidan joriy etilgan ushbu indeks 2023-yilda metodologik jihatdan takomillashtirildi, 2025-yilda esa LPI 2.0 yangi metodologiyasi taqdim etildi va jami ko'rsatkichlar 21 taga yetdi. Yangi metodologiyada ekspertlar fikri bilan bir qatorda dengiz, havo va pochta tashuvlari bo'yicha real operatsion ma'lumotlardan foydalanilishi logistika samaradorligini yanada obyektiv baholash imkonini beradi [1].

6 ta asosiy ko'rsatkich – har bir transport turi bo'yicha to'g'ridan to'g'ri transport aloqalari hamda import jarayonining vaqt samaradorligini baholaydi.

15 ta yordamchi ko'rsatkich – dengiz transportidagi raqobat muhiti, tranzit portlariga qaramlik darajasi, elektron tijorat uchun pochta logistikasi samaradorligi hamda dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlar uchun transport koridorlari faoliyatini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Logistika samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda eksport hajmi va tashqi savdo raqobatbardoshligi sezilarli darajada yuqori ekanligi empirik jihatdan isbotlangan [4], [5].

Eksport-logistika infratuzilmasining samaradorligi faqat transport obyektlari bilan belgilanmaydi. Bojxona boshqaruvi, tartibga solish sifati va institutsional muhit ham eksport xarajatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. IHTT tomonidan ishlab chiqilgan savdoni yengillashtirish ko'rsatkichlari savdoni yengillashtirish siyosatining samaradorligini baholovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimidir. IHTT tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, savdoni

yengillashtirish bo'yicha kompleks islohotlar eksport va import xarajatlarini kamaytiradi, chegara orqali yuklarni o'tkazish vaqtini qisqartiradi hamda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi [2].

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, eksport-logistika infratuzilmasining yuqori samaradorligi transport obyektlarini rivojlantirish bilan birga logistika siyosatining kompleksligi, raqamlashtirish darajasi, bojxona boshqaruvi samaradorligi hamda davlat va xususiy sektor hamkorligining rivojlanganligi bilan ham belgilanadi. Singapur, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha eksport raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalarga yo'naltirilgan.

Singapur porti dunyodagi eng yirik konteyner markazlaridan biri bo'lib, IoT (buyumlar interneti), sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan terminal texnologiyalaridan keng foydalanadi. Singapur logistika siyosatining asosiy yo'nalishi port infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirish hamda "TradeNet" yagona elektron platformasi orqali barcha eksport-import operatsiyalarini integratsiyalashtirish iborat. Singapur tajribasi shundan iboratki, mamlakatda bojxona rasmiylashtiruv asosan elektron shaklda amalga oshiriladi, bu esa hujjatlar aylanishini soddalashtirib, yuklarni rasmiylashtirish vaqtini sezilarli darajada qisqartirgan. Natijada mamlakat logistika samaradorligi bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatorida turib, eksportning yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlamoqda [10].

Germaniya logistika siyosati transport tarmoqlarini o'zaro integratsiyalashtirish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish hamda Industrie 4.0 konsepsiyasini logistika va ta'minot zanjiri boshqaruviga joriy etishga asoslangan. Mamlakatda avtomobil, temir yo'l, ichki suv yo'llari va dengiz transporti yagona logistika tizimi sifatida faoliyat yuritadi. Bunday integratsiya yuklarni tashishda transport turlarini optimal kombinatsiyalashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi [11].

Niderlandiyaning Rotterdam porti Yevropaning eng yirik dengiz porti bo'lib, qit'aning asosiy logistika "xabi" sifatida shakllangan. Portning rivojlangan multimodal infratuzilmasi, raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan terminal texnologiyalari Niderlandiyaning eksport salohiyatini oshirish, tranzit yuk oqimlarini ko'paytirish hamda Yevropa ta'minot zanjirlaridagi strategik mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Portlarda raqamli boshqaruv, avtomatlashtirilgan konteyner terminallari va "Port Community System" platformasi qo'llanilishi yuklarni qayta ishlash samaradorligini oshirgan. Mazkur yondashuv Niderlandiyaning Yevropa Ittifoqining asosiy logistika "xabi"ga aylantirgan [12].

UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreya dengiz transporti bog'liqligi (LSCI) bo'yicha dunyoning eng yuqori ko'rsatkichlarga ega mamlakatlar guruhiga kiradi. Janubiy Koreyada logistika siyosati "Smart Port" konsepsiyasi asosida shakllangan. Eng yirik portlardan bo'lgan Busan portida sun'iy intellekt, IoT, 5G va Big Data texnologiyalari asosida yuk oqimlarini boshqarish tizimlari joriy etilgan. Port operatsiyalarining avtomatlashtirilishi, konteynerlarni real vaqt rejimida kuzatish va logistika jarayonlarini raqamlashtirish eksport operatsiyalarining tezkorligi hamda ishonchlilikini oshirdi [13].

Xitoy bugungi kunda dengiz transporti bog'liqligi va yuk tashish hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Xitoy logistika siyosatining asosiy xususiyati transport koridorlari va logistika infratuzilmasiga yirik investitsiyalar yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi doirasida temir yo'l magistrallari, dengiz portlari, quruqlik logistika markazlari va xalqaro transport yo'laklari rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga, bojxona tizimining raqamlashtirilishi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va elektron tijorat logistikasining rivojlanishi eksport hajmining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Rivojlangan va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga ega davlatlar tajribasi eksport-logistika infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar mamlakat eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda. Mazkur tajribalar logistika infratuzilmasini rivojlantirish eksport raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu mamlakatlar tajribalarini qiyosiy tahlil qilamiz (1-rasm).



Singapur	Germaniya	Niderlandiya	Janubiy Koreya	Xitoy
- Raqamli bojxona, aqlli portlar, TradeNet - Rasmiylashtirish vaqti va logistika xarajatlari kamaygan, eksport raqobatbardoshligi oshgan	- Multimodal transport, Industry 4.0, logistika markazlari - Ta'minot zanjiri samaradorligi va sanoat eksporti kuchaygan	- Port Community System, raqamli boshqaruv, logistika "xabi" - Yevropa logistika markaziga aylanish, tranzit va reeksport hajmi ortgan	- Smart Port, IoT, AI, 5G, texnologiyalar - Port unumdorligi va eksport operatsiyalari tezlashgan	"Bir makon – bir yo'l", transport koridorlari, erkin iqtisodiy zonalar - Global eksport hajmi va logistika bog'liqligi sezilarli oshgan

1-rasm. Mamlakatlar tajribalarini qiyosiy tahlili

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport-logistika infratuzilmasining yuqori samaradorligiga erishgan davlatlarda logistika siyosati uchta ustuvor yo'nalishga tayangan:

- logistika infratuzilmasiga uzoq muddatli strategik investitsiyalar;
- bojxona va logistika xizmatlarini to'liq raqamlashtirish;
- davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida multimodal transport tizimlarini rivojlantirish.

O'zbekiston uchun ham mazkur yo'nalishlarni izchil amalga oshirish, xalqaro transport koridorlarini kengaytirish, logistika markazlarini yagona raqamli platforma asosida integratsiyalash hamda zamonaviy logistika texnologiyalarini joriy etish eksport xarajatlari kamaytirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va milliy mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslaganda, O'zbekistonda multimodal logistika tizimlarining yetarli darajada rivojlanmagani, logistika markazlari o'rtasidagi integratsiyaning sustligi, ombor infratuzilmasining cheklanganligi hamda logistika jarayonlarida sun'iy intellekt, IoT va Big Data texnologiyalaridan foydalanish darajasining nisbatan pastligi kuzatiladi. Shuningdek, xalqaro transport yo'laklarining cheklanganligi va ayrim chegara punktlarida rasmiylashtirish jarayonlarining davomiyligi eksport logistikasining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro transport koridorlarini diversifikatsiya qilish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda logistika markazlarini tashkil etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yagona darcha" tizimi, elektron deklaratsiyalash, bojxona xizmatlarini raqamlashtirish va yangi logistika markazlarini barpo etish eksportni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Biroq mamlakatning dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatining mavjud emasligi transport xarajatlarning yuqoriligiga va tashqi bozorlarga yetib borish muddatining uzayishiga sabab bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eksport-logistika infratuzilmasining samaradorligi mamlakat eksport salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksi (LPI), BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasining muntazam dengiz qatnovi bo'yicha o'zaro bog'liqlik indeksi (LSCI) hamda IHTTning savdoni yengillashtirish ko'rsatkichlari (TFIs) logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan eksport hajmi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Logistika infratuzilmasi rivojlangan davlatlarda yuklarni yetkazib berish muddati qisqargan, logistika xarajatlari kamaygan va global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuv darajasining yuqoriligi aniqlandi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, logistika infratuzilmasi samaradorligiga erishishda yagona universal model mavjud emas, biroq muvaffaqiyatli davlatlar tajribasida bir qator umumiy qonuniyatlar shakllangan. O'zbekistonda multimodal logistika tizimlarini rivojlantirish, logistika markazlarini o'zaro integratsiyalash, raqamli logistika platformalarini keng joriy etish hamda xalqaro transport koridorlarini diversifikatsiya qilish yo'nalishlarida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- milliy logistika strategiyasini LPI ko'rsatkichlari asosida shakllantirish. Har bir LPI komponenti bo'yicha

- maqsadli indikatorlar ishlab chiqilib, ularning bajarilishi muntazam monitoring qilinishi lozim;
- multimodal transport infratuzilmasini rivojlantirish. Temir yo'l, avtomobil, havo va xalqaro tranzit yo'nalishlarini yagona logistika tizimiga integratsiyalash eksport xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi;
 - logistika markazlari va quruqlik portlari (Dry Ports) tarmog'ini kengaytirish. Xalqaro transport koridorlari bo'ylab zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish eksport yuklarini konsolidatsiya qilish va qayta taqsimlash samaradorligini oshiradi;
 - bojxona va chegara jarayonlarini to'liq raqamlashtirish. "Yagona darcha", elektron hujjat aylanishi, xavflarni avtomatik boshqarish tizimlari va oldindan elektron deklaratsiyalash mexanizmlarini keng joriy etish tavsiya etiladi;
 - **Smart Logistics** texnologiyalarini keng qo'llash. Sun'iy intellekt (AI), Buyumlar interneti (IoT), Big Data, blokcheyn va raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyalarini transport va logistika boshqaruviga bosqichma-bosqich integratsiya qilish zarur;
 - davlat-xususiy sheriklikni (PPP) kengaytirish. Logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishda xususiy investitsiyalarni jalb etish, logistika parklarini barpo etish va zamonaviy terminal infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq;
 - xalqaro transport koridorlarini diversifikatsiya qilish. Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi, Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'li hamda Janubiy Osiyo yo'nalishlaridan samarali foydalanish eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. *Connecting to Compete 2025: Trade Logistics in an Uncertain Global Economy*. – Washington, DC: World Bank, 2025. – URL: https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtr25presentation_e.pdf
2. OECD. *Trade Facilitation Indicators: Monitoring Policies up to 2023*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/03/oecd-trade-facilitation-indicators_0a21eb4a/fd6f27dc-en.pdf
3. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *Review of Maritime Transport 2024*. – Geneva: United Nations, 2024. – URL: https://unctad.org/system/files/official-document/rmt2024_en.pdf
4. Portugal-Perez A., Wilson J. S. Export performance and trade facilitation reform: Hard and soft infrastructure // *World Development*. – 2012. – Vol. 40, No. 7. – P. 1295–1307. – DOI: 10.1016/j.worlddev.2011.12.002.
5. Martí L., Puertas R., García L. The importance of the Logistics Performance Index in international trade // *Applied Economics*. – 2014. – Vol. 46, No. 24. – P. 2982–2992. – DOI: 10.1080/00036846.2014.916394.
6. Bensassi S., Márquez-Ramos L., Martínez-Zarzoso I., Suárez-Burguet C. Relationship between logistics infrastructure and trade: Evidence from international transport // *Transport Policy*. – 2020. – Vol. 99. – P. 49–61.
7. Christopher M. *Logistics & Supply Chain Management*. – 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2016. – 328 p.
8. Bowersox D. J., Closs D. J., Cooper M. B., Bowersox J. C. *Supply Chain Logistics Management*. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 672 p.
9. Coyle J. J., Novack R. A., Gibson B. J., Langley C. J. *Supply Chain Management: A Logistics Perspective*. – 12th ed. – Boston: Cengage Learning, 2023. – 688 p.
10. *Logistics: Industry Digital Plan*. – URL: <https://www.imda.gov.sg/assets/86cead8d-f26a-4f7d-b0dd-af018d4f1a1a.pdf>
11. Yavas V., Ozkan-Ozen Y. D. Logistics centers in the new industrial era: A proposed framework for Logistics Center 4.0 // *Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review*. – 2020. – Vol. 135. – Art. 101864. – DOI: 10.1016/j.tre.2020.101864.
12. Port of Rotterdam Authority. *Cargo Throughput in the Port of Rotterdam Slightly Decreased in 2024*. – Rotterdam, 2025. – URL: <https://www.portofrotterdam.com/en/news-and-press-releases/cargo-throughput-port-rotterdam-slightly-decreased-2024>
13. *Sustainable Maritime Strategies of the Republic of Korea*. – URL: <https://www.unescap.org/sites/default/d8files/event-documents/6.RepKorea.pdf>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100